

## **BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA TA'LIMNING FAOL USULLARINI QO'LLASH**

*Mamirov Azim Xolmurzayevich,  
Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand O'zbekiston*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarni tayyorlashda ta'limning faol usullarini qo'llash va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy muammolari borasida asosli fikrlar keltirilgan bo'lib, unda bugungi kunning jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi bilish, kasbiy faoliyat, o'quv-malaka, psixotaxsisning avtomatlashtirilgan usullari, so'z bilan ta'riflash, konturli rasmda tasvirlash, modellashtirish.*

## **ПРИМЕНЕНИЕ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ**

*Мамиров Азим Холмурзаевич,  
Самаркандский государственный институт иностранных языков, Самарканд,  
Узбекистан*

*Аннотация: В данной статье представлены фундаментальные идеи о применении активных методов обучения в подготовке будущих учителей физической воспитания и современные проблемы подготовки специалистов в области спорта.*

*Ключевые слова: саморазвитие, самосознание, профессиональная деятельность, образовательный ценз, автоматизированные методы психодиагностики, словесное описание, контурное рисование, моделирование.*

## **APPLICATION OF ACTIVE METHODS OF EDUCATION IN TRAINING FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS**

*Mamirov Azim Kholmurzayevich,  
Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand Uzbekistan*

*Annotation: This article presents fundamental ideas about the use of active teaching methods in the training of future physical education teachers and modern problems of training specialists in the field of sports.*

*Key words: self-development, self-awareness, professional activity, educational qualification, automated methods of psycho diagnosis, verbal description, outline drawing, modeling.*

Ma'lumki, hozirgi zamon talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning g'oyaviy e'tiqodiga, kasb mahoratiga, iste'dodi va madaniyatiga, hozirgi zamon pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashi, talabalarni o'zaro faollikka olib kelishiga ham bog'liqdir.

Bugungi dunyoda zamonaviy ta'lim deganda biz hech qanday joy chegarasi bo'lmagan, makon va zamondan qat'i nazar, shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadigan muhitlarni tushunamiz. Samaradorlikka ishonch hosil qilish uchun ushbu hissa barcha texnologik yangiliklardan foydalangan holda juda tez bo'lishi va quvonchli bo'lishi va zamonaviy dunyo talablariga javob berishi kerak.

Zamonaviy ta'lim jarayoniga qo'yiladigan muhim pedagogik talab o'quvchini faol ta'lim muhitiga kiritish bo'lib, u o'zini ijodiy jarayonni mustaqil boshqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat boshlang'ich ijodiy salohiyatni rivojlantirishga, balki kelajakda o'zini o'zi bilishga, ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga va shaxsda ob'ektiv o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga imkon beradi.

Shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirishni aks ettirish qobiliyatisiz amalga oshirish mumkin emas, bu insonga nafaqat o'zi bilgan narsalarni ajratishga, balki uning nomukammalligi sababini, o'z imkoniyatlari chegaralarini aniqlashga imkon beradi. O'qituvchining vazifasi talabaga ushbu chegaralarni aniqlashga yordam berish va o'zini o'zi takomillashtirish istiqbollarni belgilashdan iboratdir.

Bugun mutaxassis tayyorlash muammolari haqida gapirganda, biz, birinchi navbatda, tamoyillarga asoslangan ta'limning yangi paradigmasini nazarda tutamiz. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani o'quv jarayoni orqali rivojlantirish, kredit ta'lim tizimi doirasida

individuallashtirish, ta'lim yo'lini tanlash va o'qitish hajmini hisobga olgan holda mustaqil ta'lim va bilimlarni ijodiy o'zlashtirishni faollashtirishga qaratilgan bo'lib, kreditlar shaklida ifodalangan bilimlar va ta'limning kredit tizimi joriy etilganda talabalarning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan o'quv fanlarini tanlab, o'z ta'lim jarayoni strukturasi individual ravishda rejalashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Talaba o'zining mustaqil o'quv faoliyatida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlaridan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, kengaytiradi, chuqurlashtiradi, tushunchalar yoki ularning xossalari umumlashtiradi yoki xususiylashtiradi, olingan bilimlarini amaliyotga masala yoki muammolarni echishda qo'llaydi, qo'yilgan muammoni hal qilish yo'llarini mustaqil izlaydi va echish usullaridan eng maqbulini, samaralisini tanlaydi, kelgusi ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'radi. Mustaqil faoliyatning asosi o'qituvchi tomonidan shakllantirilishi, talabani mustaqil faoliyat olib borishiga etaklovchi, undovchi zarur shart sharoit va imkoniyatlar yaratilishi, talabani bu faoliyatida faol ishtirokini ta'minlash kerak bo'ladi [7; 15-17-b.].

Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda ta'limning faol usullarini va texnik vositalarini qo'llashda [8; 60-b.]. tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yangiliklarni aniqlangan:

jismoniy madaniyat jarayonida ta'limni individuallashtirish asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatida talabalarda jismoniy harakat faolligiga oid motivatsiyasi rivojlantirilgan;

bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini shaxsiy, umumiy madaniyat va maxsus kompetentligi xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, funksional xolatini individual ko'rsatkichlarining o'zgarishi aniqlangan;

jismoniy madaniyat mutaxassislarining kasbiy kompetentligini (ishchanlik, harakatchanlik o'z-o'zini anglash, bilim, tajriba, xabardorlik qobiliyatlari) shakllantirishda individuallashtirish yondashuv ta'limi asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida sog'lomlashtirish ta'limini individuallashtirish modeli (jismoniy sifatlar, mustaqillilik ko'nikmasi va psixofiziologik, salomatlik holati hamda ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish) takomillashtirilgan.

Ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak mutaxassislarni etuk kadr darajasiga, maqomiga (pozitsiyasiga) qo'yish imkonini beradigan usullar ancha darajadagi zahiralarga ega. Buning uchun, egallangan nazariyani real amaliyotga yaqinlashtirish holatini yuzaga keltirish zarur, ularni qo'llashning psixologik mexanizmi, talabalarni faoliyatning bir (bilish) turidan boshqa (professional) turiga o'tkazishdan iborat. Ko'pchilik mualliflar o'yin usullarining samarasi ancha katta ekanligini ta'kidlashgan. O'yinlar ulardan oldin tashkil etilgan ma'ruzalarda va seminar mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga imkon yaratadi [3; 56-59-b.].

Shuni aytish lozimki, hozirgi vaqtda, o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomil-lashtirishning asosiy o'zagi – uni faol faoliyat ko'rinishida tashkil qilish hisoblanadi. Bunday ta'lim olish talabalar tafakkurining faollashuvi bilan rivojlanuvchi bo'ladi. Bunda, o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarning faol faoliyatini tashkil qilish va boshqarishdan iborat bo'ladi. Rivojlantiruvchi ta'limga nisbatan bunday yondashuv bilimlarni o'zlashtirishning faoliyatli nazariyasiga tayanadi [4; 5-8-b.]. O'zlashtirishning asosiy qonuniga binoan, bilim tayyor holatda oddiygina axborot berish yoki ko'rsatish yo'li bilan uzatilishi mumkin emas. Ular faqatgina faol shaxsiy faoliyat natijasida o'zlashtirilishi mumkin. Ta'lim usullari, avvalambor, ta'lim yo'nalishini belgilash bilan bog'liq.

Faoliyat bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi, tayyorlanish bosqichi, rejani bajarish (asosiy) bosqich va erishilganlikni baholash (yakunlovchi) bosqichi [1,89].

Axborotni taqdim qilish uchun texnik vositalarni bilish, ilgari inson uchun noma'lum bo'lgan oddiy predmetlarni tanish paytida zarur bo'lgan vaqt bilan ko'rgazmali tavsiflanadi:

- so'z bilan ta'riflash paytida – 2,8 sek.;
- konturli rasmda tasvirlash paytida – 1,5 sek.;
- oq-qora fotosuratda – 1,2 sek.;
- rangli fotosuratda – 0,8sek.;
- predmetni tabiiy kattaligida namoyish qilish paytida – 0,4 sek.

adabiyotlarni tahlil qilish natijasi axborot texnologiyalarni ta'limda qo'llashning to'rtta yo'nalishini ajratish imkonini berdi:

- ta'limning individual usullarini amalga oshirish ;
- bilimni hisobga olish va nazorat qilish ;
- dars jarayonini boshqarish ;
- har xil jarayonlarni imitatsiyalash (modellashtirish) .

Pedagog olimlar SH.S.SHaripov, O.A.Qo'ysinov, L.R.Zaripovlarning tadqiqotlarida ta'limga innovatsion yondashuv faqatgina ma'lumotlar va ko'nikmalarning yig'indisini egallashdan iborat

bo'lgan ta'lim natijalariga emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatga, turli xil muammolarni mustaqil ravishda echa olishga qodirligi va tayyorligiga yo'naltirilgan ta'lim natijalarining yangi turlarini yuzaga keltirishi ko'rsatilgan [2, 68].

Zamonaviy ta'lim sohasidagi asosiy vositalardan biri bu informatsion texnologiyalar hisoblanadi. Ular borlig'imizdagi eng muhim qismlarning tizimli xususiyatlarini o'zgartirish imkonini beradi. Ta'lim sohasida informatsion texnologiyalarni qo'llash strategiyasini ishlab chiqish – milliy va global darajada strategik rejalashtirish muammosining asosiylaridan biri hisoblanadi [6; 19-24-b.].

Mutaxassislarning faoliyati, borgan sari, ularning ma'lum bir axborotga ega ekanligiga, bu axborotni samarali qo'llash qobiliyatiga ulkan darajada bog'liq bo'lmoqda. Har qanday sohadagi zamonaviy mutaxassis informatsion oqimda erkin yo'nalishi uchun axborotni kompyuterlar, telekommunikatsiyalar va informatsion texnologiyalarning boshqa vositalari yordamida olish, qayta ishlash va foydalanishni bilishi kerak. Jamiyatning informatika vositalari va usullari arsenalini (to'plamini) o'zlashtirgan malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ta'lim siyosatining etakchi omiliga (konsepsiyaga) aylanmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport ta'limi sohasida zamonaviy informatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishning tashkiliy, moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga qaramasdan, ular bir qator soha mutaxassislari ma'lum darajada qiziqishni uyg'otmoqda. Chunki bu erda, xuddi boshqa sohalardagi kabi, birinchi galda ma'lum darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni to'plashga yo'naltirilgan an'anaviy tayyorlash shakllaridan axborotni to'plashni, qayta ishlashni va uzatishni samarali amalga oshirish, mustaqil ishlash va ta'lim olishni, ta'limning mazmunini, usullarini va tashkiliy shakllarini sifatli o'zgartirish imkonini beradigan informatsion va kommunikatsion texnologiyalarga o'tish zarurati yuzaga keldi. Soddaroq qilib aytganda mutaxassisi soha zamonaviy informatsion texnologiyalarni talab darajasida egallab, uni faoliyati davomida qo'llay olsin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari yuzaga chiqmoqda Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Har xil sport fanlari bo'yicha nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish dasturlarini ishlab chiqish va qo'llash;

ta'lim beruvchi multimedia-tizimlar;

ma'lumotlar bazasini yaratish va qo'llash;

kompyuter musobaqalarini, taktik harakatlarni va jarayonlarni modellashtirish;

musobaqalarga xizmat ko'rsatish uchun informatsion texnologiyalarni qo'llash;

informatsion texnologiyalarni reklama, nashriyot va tadbirkorlik faoliyatida qo'llash;

informatsion texnologiyalarni ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish va amalga oshirishda qo'llash;

psixotaxxisning avtomatlashtirilgan usullari;

sport faoliyatining avtomatlashtirilgan usullari;

funksional tashxisning avtomatlashtirilgan.

Ilg'or informatsion texnologiyalar bazasida ta'lim sohasining zamonaviy holatini tahlil qilish, ikkita omil: ta'lim texnologiyasi va nazariyasi – o'zaro zaruriy aloqasiz harakat qilishini ko'rsatadi. O'quv jarayoniga oddiygina texnik vositalarning kiritilishi emas, balki xususan, ta'lim vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan yangi - jismoniy tarbiya va sport uslubiyatini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarining kiritilishi muhimdir. Bu esa o'z navbatida ushbu sohada chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini kuchaytiradi. Shu tufayli, zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llashning, boshqa sohalarda to'plangan tajribalarni pedagogik jihatdan anglashning, jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda dasturiy vositalarni yaratish va o'rganish bo'yicha mos ravishdagi ilmiy va uslubiy ishlarni amalga oshirishning didaktik va uslubiy tamoyillari alohida dolzarblikka ega bo'ladi.

Ta'limning zamonaviy bosqichi katta quvvatga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlarni, katta xajmdagi tez harakatlanadigan jamg'aruvchilarni, yangi informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni, multimedia-texnologiyalarni va virtual reallikning qo'llanilishi bilan hamda sodir bo'layotgan jarayon va uning ijtimoiy oqibatlari bilan tavsiflanadi. Ta'lim tizimida informatsion texnologiyalarni qo'llash "ta'limning kompyuter metodologiyasini" yaratishga ko'maklashdi. U o'quv jarayonida o'quv- bilish faoliyatini kompyuterda modellashtirishni, axborot berish usulini, o'quv faoliyatini dasturlashtirishni, assotsiativ usulni, testlash usulini, faol o'rgatishning o'yin usulini, loyihalar usulini qo'llashga yo'naltirilgan

Hozirgi vaqtda sport-pedagogik fanlar, jismoniy tayyorgarlik nazariyasi, matematik statistika, sport metrologiyasi, biomexanika fanlari bo'yicha axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlari ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga joriy qilingan. Ushbu tizimlar orasida sportchilar

organizmida o'tadigan tezkor va uzoq muddatli moslashish (adaptatsion) jarayonlarini qayta (imitatsion) modellashtirish imkonini beradigan dasturlar ham yaratilgan. Shuni aytish lozimki, shug'ullanuvchilar bilan jismoniy mashqlar mashg'ulotlarini olib borish paytida informatsion texnologiyalarni qo'llash [5; 14-17-b.] ishida aks ettirilgan bo'lib, unda muallif, harakat amallariga o'rgatish paytida informatsion texnologiyalarni qo'llash masalalarini yoritgan.

Xulosa o'rnida ana'anaviy ta'lim tizimiga yangi shakl va usullarni joriy qilish, ma'lum darajadagi o'zgartirishlarning albatta kiritilishi, bu, o'qituvchi faoliyatida ham va talaba faoliyatida ham namoyon bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, o'quv jarayonida faol ta'lim berish usullarining amalga oshirilishi faol ta'lim berish sohasida mos ravishdagi mutaxassislarning va mos ravishdagi tashkiliy-uslubiy ta'minotning mavjudligiga, ishbilarmonlik o'yinlari bo'yicha metodik ishlanmalar to'plamini va ma'lum bir o'quv fanlari bo'yicha boshqa shakllarining mavjudligiga hamda o'quv jarayonini faollashtirishning bir butun rejasini ishlab chiqilganligiga deyarli to'liq bog'liqdir. Mutaxassislar ta'limning faol shakllarini qo'llash asoslarini bilishi bilan birga, o'zida o'qituvchi, psixolog, aktyor sifatlarini mujassamlashtirishi, auditoriya bilan muloqot qilishni va ularni o'z faniga qiziqtirishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. –T.: O'zDITI, 2005 yil. – 300 b.
2. Axmatov M.S. Monografiya. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005 y. – 235 b.
3. Капилевич Л.В., Разуванова А.В., Медведева Е.В., Кошельская Е.В. Формирование двигательных навыков на основе современных информационных технологий // Теория и практика физической культуры. -2016. - №8. - С.56-59.
4. Лейфа, А.В. К вопросу о физической культуре в профессиональной деятельности специалиста по социальной работе / А.В. Лейфа // Теория и практика физической культуры. - 2004. - № 6. - С .5
5. Мусаев Б.Б., Частоедова А.Ю., Проблема дистанционного обучения в вузах спортивной направленности // Фан-спортга илмий–назарий журнал.2017. № 1, -Б.14-17.
6. Умаров Д.Х. Технология обучения студентов профессиональной деятельности в высшем учебном заведении // Фан-спортга илмий –назарий журнал.-2008. № 2.-Б. 19-24.
7. Хужомов Б.Х. Мустакил таълим жараёнини такомиллаштиришнинг замонавий усуллари // Фан-спортга илмий –назарий журнал.-2020. № 2, -Б. 15-17.
8. Тухтахўжаев Х.Б. “Педагогика олий таълим муассасаларида талабалар таълимини индивидуаллаштириш (жисмоний тарбия мисолида)”. Пед. ... ф.б.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати. Чирчиқ – 2018, -60 б.
9. Олимов А.И. “Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини ўқитишда мобил иловалврини қўллаш методикасини такомиллаштириш (жисмоний маданият назарияси ва методикаси мисолида)”. Пед. ф.б.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати. Чирчиқ – 2021.